ТЕРМИЗ ДАВЛАТ УНИВЕРСИТЕТИ

PHILOLOGICAL RESEARCH: LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

FILOLOGIK TADQIQOTLAR: TIL, ADABIYOT, TA'LIM

ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ: ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

Илмий-инновацион журнал

Jurnal OAK Rayosatining 2022-yil 30-sentabrdagi 325/6-son qarori bilan filologiya fanlari bo'yicha doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan

2021-yildan buyon nashr etiladi

2026/ № 1. 1-2

Termiz – 2026

Muassis:
Termiz davlat universiteti

PHILOLOGICAL RESEARCH: LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

FILOLOGIK TADQIQOTLAR: TIL, ADABIYOT, TA'LIM

ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ: ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

ILMIY-INNOVATSION JURNAL

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2020 yil 19 oktyabrda 1122 raqami bilan ro'yxatga olingan. Matnlarda foydalanilgan misol, ko'chirma va ma'lumotlar aniqligi uchun mualliflar javobgardir. Jurnaldan ko'chirib bosilganda manba qayd etilishi shart.

Bosishga ruxsat etildi: 12.03.2026
Qog'oz bichimi: 70x85
Bosma tabog'i: 5.94
Ofset bosma. Ofset qog'ozi
Adadi: 100
Bahosi kelishilgan narxda
Buyurtma: 155-son

«TerDU bosmaxonasi»da chop etildi
Termiz shahri, Barkamol avlod ko'chasi, 43-uy

Tahririyat manzili:
190111, Termiz shahri,
Barkamol avlod ko'chasi, 43.
Telefon: +998762231649

E-mail:
philologicalresearch@umail.uz
Rasmiy sayt:
https://journaltersu.uz

BOSH MUHARRIR:
Abduqodir TOSHQULOV,
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

TAHRIR HAY'ATI:

Bekpo'lat Umurqulov, filologiya fanlari doktori, professor (bosh muharrir o'rinbosari)
Shoxista Maxmaraimova, filologiya fanlari doktori, professor (mas'ul muharrir)
O'ral Xoliyorov, f.f.f.d. (PhD), dotsent (O'zbekiston)
Olmos Ulviy Binnatova, f.f.d., professor (Ozarbayjon)
Karl Rayxl, f.f.d., professor (Germaniya)
Vali Savash yelok, f.f.d., professor (Turkiya)
Dorota Silviya, f.f.f.d. (PhD), dotsent (Polsha)
Zabita Mahammad qizi Teymurlu, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent (Ozarbayjon)
Tarana Imomverdi qizi Xojieva, filologiya fanlari doktori, professor (Ozarbayjon),
Muslihiddin Muhiddinov, f.f.d., professor (O'zbekiston)
Ibodulla Mirzayev, f.f.d., professor (O'zbekiston)
Abdi Mamatov f.f.d., professor (O'zbekiston)
Suyun Karimov f.f.d., professor (O'zbekiston)
Muhammadxon Hakimov, f.f.d., professor (O'zbekiston)
Nafas Shodmonov f.f.d., professor (O'zbekiston)
Dilmurod Quronov, f.f.d., professor (O'zbekiston)
Murodqosim Abdiyev, f.f.d., professor (O'zbekiston)
Baxtiyor Mengliyev, f.f.d., professor (O'zbekiston)
Normat Yo'ldoshev, f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Baxtiyor Xolmuxamedov, f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Bobonazar Murtazayev, f.f.n., dotsent (O'zbekiston)
Asqar Eshmo'minov, f.f.d., professor (O'zbekiston)
Obidjon Shofiyev, f.f.f.d. (PhD), dotsent (O'zbekiston)
Zafar Umurqulov, f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Nurali Amonturdiyev, f.f.f.d. (PhD) (O'zbekiston)
Hakim Ahmedov, f.f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Abdulla Xudoyqulov, f.f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Ahad Shukurov, f.f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Eshnazar Jabborov, f.f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Abdumurod Arslonov, f.f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Sirojiddin Turdimurodov, f.f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Umida Raximova, f.f.f.d. (PhD) (O'zbekiston)
Gulchehra Begmatova, f.f.f.d. (PhD) (O'zbekiston)
Nargis Qurbonazarova, f.f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Muyassar Xolova, f.f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Shoira Omonturdiyeva, f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Sherzod Turdiqulov, f.f.f.d. (PhD) (O'zbekiston)
Alibek Omonturdiyev, f.f.f.d. (PhD) (O'zbekiston)
Humayun Nadim Muhammad, f.f.f.d., dotsent (O'zbekiston)

Texnik muharrir: Bahodir To'raliyev

Учредитель:
Термезский государственный университет

PHILOLOGICAL RESEARCH: LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

FILOLOGIK TADQIQOTLAR: TIL, ADABIYOT, TA'LIM
ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ: ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

НАУЧНО-ИННОВАЦИОННЫЙ ЖУРНАЛ

Зарегистрировано Агентством информации и массовых коммуникаций при Администрации Президента Республики Узбекистан от 19 октября 2020 года под номером 1122.

Авторы несут ответственность за точность приведенных в текстах примеров, отрывков и данных. Необходимо указывать источник при копировании из журнала.

Разрешено к печати: 12.03.2026
Размер бумаги; 70x85
Печатный лист: 5.94
Офсетная печать: Офсетная бумага
Тираж: 100. Цена договорная
Заказ: 155

Печатано в «Типографии ТерГУ»
ул. Баркамол авлод 43, г. Термез

Адрес редакции:
190111, г.Термез, ул. Баркамол авлод, 43.
Телефон: +998762231649

E-mail:
philologicalresearch@umail.uz

Официальный сайт:
https://journaltersu.uz

ГЛАВНЫЙ РЕДАКТОР:
Абдукадир ТАШКУЛОВ,
доктор экономических наук, профессор

РЕДАКЦИОННАЯ КОЛЛЕГИЯ:

Бекпулат Умуркулов, доктор филологических наук, профессор (зам. главного редактора)
Шохиста Махмараимова, доктор филологических наук, профессор (ответственный редактор)
Урал Холияров, д.ф.ф.н. (PhD), доцент (Узбекистан)
Олмос Улвий Биннатова, д.ф.н., профессор (Азербайджан)
Карл Райхл, д.ф.н., профессор (Германия)
Вали Саваш Елок, д.ф.н., профессор (Турция)
Дорота Сильвия, PhD, доцент (Польша)
Забита Магомед кызы Теймурлу, доктор философии по филологии, доцент (Азербайджан)
Тарана Имамверди гызы Хаджиева, доктор наук, профессор (Азербайджан)
Муслихиддин Мухиддинов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Ибодулла Мирзаев, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Абди Маматов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Суюн Каримов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Мухаммадхон Хакимов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Нафас Шодмонов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Дилмурод Куронов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Мурадкасим Абдиев, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Бахтиёр Менглиев, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Нормат Юлдашев, д.ф.н., доцент (Узбекистан)
Бахтиёр Холмухамедов, д.ф.н., доцент (Узбекистан)
Бобоназар Муртазаев, к.ф.н., доцент (Узбекистан)
Аскар Эшмуминов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Обиджон Шофиев, д.ф.ф.н. (PhD), доцент (Узбекистан)
Зафар Умуркулов, д.ф.н., доцент (Узбекистан)
Нурали Амонтурдиев, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Хаким Ахмедов, д.ф.ф.н., доцент (Узбекистан)
Абдулла Худайкулов, д.ф.ф.н., доцент (Узбекистан)
Ахад Шукуров, д.ф.ф.н., доцент (Узбекистан)
Эшназар Джаббаров, д.ф.ф.н., доцент (Узбекистан)
Абдумурод Арслонов, д. ф.ф.н., доцент (Узбекистан)
Сирожиддин Турдимуродов, д. ф.ф.н., доцент (Узбекистан)
Умида Рахимова, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Гульчехра Бегматова, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Наргис Курбаназарова, д. ф.ф.н., доцент (Узбекистан)
Муяссар Холова, д.ф.ф.н., доцент (Узбекистан)
Шаира Амонтурдиева, д.ф.н., доцент (Узбекистан)
Шерзад Турдикулов, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Алибек Омонтурдиев, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Хумаюн Надим Мухаммад, д.ф.ф.н., доцент (Узбекистан)

Технический редактор: Баходир Туралиев

Institutor:
Termez State University

PHILOLOGICAL RESEARCH: LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

FILOLOGIK TADQIQOTLAR: TIL, ADABIYOT, TA'LIM

ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ: ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

SCIENTIFIC-INNOVATIONAL JOURNAL

Registered by the Agency for Information and Mass Communications under the President's Administration of the of the Republic of Uzbekistan on October 19, 2020 under number 1122.

The authors are responsible for the accuracy of the examples, passages and data provided in the texts. The source must be specified when copying from the journal.

Approved for printing: 12.03.2026
Size of the paper: 70x85
Printed sheet: 5.94. Offset printing.
Offset paper. Circulation: 100
Price is negotiable
Order: 155. Printed at the «Printing House of the TerSU»
43, Barkamol avlod str. Termez city.

Address of Editorial Office:
190111, Barkamol avlod str., 43,
Termez city.
Phone: +998762231649

E-mail:
philologicalresearch@umail.uz

Official website:
https://journaltersu.uz

EDITOR IN-CHIEF:
Abdukodir TASHKULOV,
doctor of economic sciences, professor

EDITORIAL BOARD:

Bekpulat Umurkulov, doctor of philological sciences, professor (Uzbekistan) (deputy chief editor)
Shohista Makhmaraimova, doctor of philological sciences, professor (Uzbekistan) (editor-in-chief)
Ural Kholiyorov, Doctor of Philosophy in Philology, Associate Professor (Uzbekistan)
Olmos Ulviy Binnatova, doct.of philol. sciences, professor (Azerbaijan)
Karl Rayxl, doct.of philol. sciences, professor (Germany)
Vali Salvash Elok, doct. of philol. sciences, professor (Turkey)
Dorota Silvia, PhD, associate professor (Poland)
Zabita Magomed kyzy Teymurlu, Doctor of Philosophy in Philology, Associate Professor (Azerbaijan)
Tarana Imamverdi gizi Khadzhieva, Doctor of Sciences, Professor (Azerbaijan)
Muslihiddin Mukhiddinov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Ibodulla Mirzaev, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Abdi Mmatov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Suyun Karimov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Muhammadkhon Khakimov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Nafas Shodmonov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Dilmurod Kuronov, doct. of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Muradkasim Abdiyev, doct. of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Bakhtiyor Mengliev, doct. of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Normat Yuldashev, doct. of philol. sciences, associate professor (Uzbekistan)
Bakhtiyor Kholmukhamedov, doct. of philol. sciences, associate professor (Uzbekistan)
Bobonazar Murtazaev, cand.of philol. sciences, associate professor (Uzbekistan)
Askar Eshmuminov, doct. of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Obidjon Shofiev, PhD, associate professor (Uzbekistan)
Zafar Umurkulov, doct. of philol. sciences, associate professor (Uzbekistan)
Nurali Amonturdiev, PhD (Uzbekistan)
Hakim Akhmedov, Doctor of Philosophy in Philology, Associate Professor (Uzbekistan)
Abdulla Khudaykulov, Doctor of Philosophy in Philology, Associate Professor (Uzbekistan)
Ahad Shukurov, Doctor of Philosophy in Philology, Associate Professor (Uzbekistan)
Eshnazar Jabbarov, Doctor of Philosophy in Philology, Associate Professor (Uzbekistan)
Abdumurod Arslonov, Doctor of Philosophy in Philology, Associate Professor (Uzbekistan)
Sirojiddin Turdimurodov, Doctor of Philosophy in Philology, Associate Professor (Uzbekistan)
Umida Rakhimova, Doctor of Philosophy in Philology (Uzbekistan)
Gulchekhra Begmatova, Doctor of Philosophy in Philology (Uzbekistan)
Nargis Kurbanazarova, Doctor of Philosophy in Philology, Associate Professor (Uzbekistan)
Muyassar Kholova, Doctor of Philosophy in Philology, Associate Professor (Uzbekistan)
Shoira Omonturdiyeva, doct. of philol. sciences, associate professor (Uzbekistan)
Sherzod Turdikulov, Doctor of Philosophy in Philology, Associate Professor (Uzbekistan)
Alibek Omonturdiev, Doctor of Philosophy in Philology (Uzbekistan)
Humayun Nadim Muhammad, Doctor of Philosophy in Philology, Associate Professor (Uzbekistan)

Technical editor: Bakhodir Turaliyev

МУНДАРИЖА

TILSHUNOSLIK

PARDAYEV AZAMAT BAXRONOVICH
So‘zning lingvistik tabiati xususida 7

HAMIDOVA MUHAYYOXON OBIDOVNA
Shukur Xolmirzayev nasrida milliy mentalitetning badiiy talqini 11

ABDURAXMONOV XUDOYNAZAR ABDIRAYIMOVICH
Mavhum otlarning kognitiv-semantik va diskursiv xususiyatlari:
zamonaviy tilshunoslik yondashuvlari asosida tahlil 16

ASADOV TO‘LQIN HAMROYEVICH
Predmet-belgi ma’noli ayrim morfologik oraliq so‘zlarning qiyosiy-tarixiy tavsifi 22

G‘AYBULLAYEVA DILDORA FAYZULLA QIZI
O‘zbek tilidagi insonning fizik xususiyatlarini
ifodalovchi frazeonimlarning semantik-stilistik tahlili 26

NASHIROVA SHAXNOZA BURIYEVNA
Ikki tilli lug‘atlar: nazariy asoslar va tarixiy yondashuv 29

NORKUZIYEVA DILDORA
Til tizimiga kiritilgan zoonim va zoomorfizmlarning
qiyosiy tipologik tadqiqotlardagi tahlili 33

ERGASHEVA DILRABO ALLANAZAROVNA
Epitet – badiiy matnni obrazli ifodalovchi vosita 38

AVEZOVA GULNOZA KAMILOVNA
Komil Avazning nasriy asarlarida dialektizmlarning qo‘llanilishi
(«Sozanda» romani misolida) 41

AMONOVA ZAMIRA
Nemis va o‘zbek tillarida destruksiyani ifodalovchi
fe’llarning metaforik qo‘llanilishi 44

NE’MATOVA O‘G‘ILOY AKRAM QIZI
«Maxzan ul-asror” dostonining badiiy-tasviriy
vositalari va uslubiy xususiyatlari 53

TUROBOVA MATLUBA RAXMATULLAYEVNA
Sun’iy intellekt tizimlarida o‘zbek tili leksikografik bazasini
shakllantirishning innovatsion usullari 56

KO‘CHIYEVA SHABNAM ISOMIDDIN QIZI
Tilshunoslikda disleksiya va disgrafiyaning
neyrolingvistik va psixolingvistik tadqiqi masalalari 60

OZADOVA MA’MURA ERGASHEVNA
Xorazm xalq qo‘shiqlari tilidagi manglay leksemasining lingvokulturologik va
lingvopoetik xususiyatlariga doir 63

МУНДАРИЖА

ALLAQULOVA SADOQAT AXMAT QIZI
O‘zbek tilining umumiy izohli lug‘atlarida etnoleksemalar berilishining qiyosiy tahlili 65

O‘RAZOV ALISHER DONIYOROVICH
O‘zbek tilida leksemaning semantik tabiati 68

JUMAYEVA KUMUSH TURSUNALIYEVNA
O‘zbek tili o‘zlashma qatlam somatik lesemalarida leksik tipologiya 72

MURODQULOVA IRODA SHAROFIDDINOVNA
Semurg‘ obrazining lingvomadaniy talqini (o‘zbek xalq dostonlari misolida) 76

ADABIYOTSHUNOSLIK

АСРОРОВ АКБАР, БОЛТАЕВ МАРДОН
Шоҳона сатрлар соҳиби – Султон Убайдий 80

SAMATOV SHOMAT, XO‘JANOVA OZODA
Buyuk shoir xotirasiga munosib haykal 85

ABDULLAYEV RAMAZON
Composing tatabbu‘ poetry in the time of Mu‘izzī and after him 88

JEPBAROWA SAÝAT KURBANMIRATOWNA,
EGENMURADOV ARZUV ANNAMIRATOVICH
Magtymguly Pyragynyň döredijilik äleminde möwlana Lutfynyň edebi poetik täsiri 93

ABDUXALIQOVA HILOLA G‘ULOM QIZI
XVIII–XIX asrlar o‘zbek dostonlarida tasavvufiy talqinlar 97

PAYG‘AMOVA SHIRIN JAKBARALI QIZI
Analitik folklorizmlarning poetik xususiyatlari 100

JAVLIYEV POYONBEK SHAVKAT O‘G‘LI
Usmon Azim nasrida lirik ohang 103

FERUZA RASULOVNA RASHIDOVA
The depiction of internal monologue as a form of artistic psychologism
in the novels of the Bronte sisters 106

TA’LIM

MASHARIPOVA NARGIZA OTAXONOVNA,
BAXRAMOVA MALIKA MUZAFFAROVNA
Sun’iy intellektli o‘yin yordamida inglizcha so‘z boyligini oshirish
(o‘zbek madaniyati asosida) 109

Filologik tadqiqotlar: til, adabiyot, ta'lim. 2026; 1-2
ISNN: 2181-1741 (Print)
ISNN: 2181-1725

«MAXZAN UL-ASROR" DOSTONINING BADIIY-TASVIRIY VOSITALARI VA USLUBIY XUSUSIYATLARI

Ne'matova O'g'iloy Akram qizi,
Toshkent davlat Sharqshunoslik universiteti tayanch doktoranti

«Maxzan ul-asror» dostonida Haydar Xorazmiy badiiy tasvir vositalaridan mohirona foydalangan. Bu san'atlar asarning badiiy qimmatini oshirishga va muallifning g'oyaviy maqsadini yorqin ifodalashga xizmat qilgan. Olim Jamoliddin Jo'rayevning asar xususidagi quyidagi ta'rifi aynan topib aytilgan: "Haydar Xorazmiy nazmning ta'sir kuchiga yuksak baho berib, qiyomiga yetgan hikmatli satrlar, xalq maqoli darajasiga yetgan baytlarga yetuk san'atkorona durri-javohir kabi falsafiy-axloqiy fikrlarni singdirib yuborgan. Shu bilan birga, badiiy asarning shakl va mazmuni bir-birini to'ldirishi va mos kelishi lozimligini ham e'tibordan sobit qilmagan"[1]. Haqiqatan ham, so'z sarrofi bo'lgan Haydar Xorazmiy dostonning badiiy-estetik jihatlariga mohirona yondashib, har bir so'zning ham mazmuniy jihatdan, ham tarbiyaviy jihatdan o'z o'rnida qo'llanishiga katta e'tibor qaratgan.

Tashbeh (o'xshatish) san'ati va uning turlari. Dostonda tashbehning turli ko'rinishlari qo'llanilgan bo'lib, ular asosan tasavvufiy mazmunni ifodalashga qaratilgan. O'xshatishlar ko'pincha tabiat hodisalari, osmon jismlari va ma'danlar bilan bog'liq. Masalan:

«Baş çıkarıp ışk *köngül ceybidin*
Başladı söz nusha-i lâ-reybidin»[2]

Ushbu baytda ishq tuyg'usi jonli mavjudotga o'xshatilgan bo'lib, uning ko'ngil cho'ntagidan bosh chiqarishi tasvirlanmoqda. Bu o'rinda murakkab tashbeh qo'llanilgan.

Istiora (metafora)larning o'ziga xosligi. Asarda istioraning go'zal namunalari uchraydi. Ayniqsa, muallifning tasavvufiy tushunchalarni ifodalashda qo'llagan istioralari e'tiborga molik:

«*Tarttı ol mâye-i huş-yârlıg*
Cân közige sürme-i bîdârlıg»[3]

Bu misralarda «huşyorlik moddasi» va «uyg'oqlik surmasi» kabi istioralar qo'llanilgan bo'lib, ular ruhiy holatlarni moddiy narsalar orqali ifodalashga xizmat qilgan.

Tazod (antiteza) va talmeh san'atlarining badiiy vazifasi. Tazod san'ati asarda qarama-qarshi tushunchalarni ifodalash orqali ma'noni kuchaytirish vazifasini bajargan. Masalan, yorug'lik-zulmat, ma'rifat-jaholat, vafo-jafo kabi zid ma'noli so'zlar orqali fikr ta'sirchanligiga erishilgan.

Talmeh san'ati esa tarixiy voqealar, diniy-tasavvufiy rivoyatlarga ishora qilish orqali asarning g'oyaviy mazmunini boyitishga xizmat qilgan. Ayniqsa, Qur'on qissalari va payg'ambarlar tarixi bilan bog'liq talmehlar ko'p uchraydi.

Mubolag'a va husni ta'lil san'atlarining qo'llanilishi. Mubolag'a san'ati dostonda voqea-hodisalarning ta'sir kuchini oshirish, qahramonlarning xislat va fazilatlarini bo'rttirib ko'rsatish uchun ishlatilgan. Husni ta'lil esa hodisalarning yuz berish sababini go'zal va o'ziga xos tarzda izohlashda qo'llanilgan.

Lafziy san'atlar (saj', tarse', tajnis)ning o'rni. Asarda lafziy san'atlarning qo'llanilishi ham diqqatga sazovor. Saj' (nasrdagi qofiya) asosan nasriy parchalarda, tarse' (misralarning o'zaro mutanosib kelishi) esa she'riy parchalarda keng qo'llanilgan. Tajnis (o'zakdosh so'zlarni qo'llash) san'ati esa so'z o'yini orqali ma'noni kuchaytirish vazifasini bajargan:

«*Zevk u heves tilge revânlık birip*
Söz demine rûh-feşânlık birip»[4]

Bu baytda «revânlık» va «rûh-feşânlık» so'zlari orasida tarse' san'ati qo'llanilgan.

Haydar Xorazmiy badiiy tasvir vositalarini qo'llashda an'anaviy usullardan foydalangan bo'lsa-da, ularga yangicha mazmun va shakl bag'ishlagan. Ayniqsa, tasavvufiy mazmunni ifodalashda bu san'atlardan unumli foydalangan. Uning badiiy mahorati shundaki, murakkab falsafiy-tasavvufiy g'oyalarni sodda va tushunarli badiiy vositalar orqali ifodalay olgan.

«Maxzan ul-asror» dostoni til xususiyatlari jihatidan turkiy adabiyotining muhim durdonalaridan biri sifatida so'z boyligi rivojiga munosib hissa qo'sha olgan asar sifatida e'tirof etiladi. Asar leksikasida

[1] Jo'rayev J.Haydar Xorazmiyning "Gulshan-ul asror"asari matniy-qiyosiy tadqiqi. – Jizzax: Ilm nuri print, 2025. – B.172.
[2] Gözütok, Avni (2008). Haydar Tilbe, Mahzenü'l-Esrâr (Gramer-Metin-Dizin-Tıpkıbasım). Erzurum: Fenomen Yay. S. 59.
[3] Eraslan, Kemal (1993). "Çağatay Edebiyatı". İslâm Ansiklopedisi. C. 8. İstanbul: TDV Yay. s. 170-176.
[4] Kahhar, Tahir (2000). "Haydar Harezmî". Başlangıcından Günümüze Kadar Türkiye Dışındaki Türk Edebiyatları Antolojisi. C. 14. Ankara: KB Yay. s. 431-434.

arab-fors va turkiy so'zlarning uyg'unligi, tasavvufiy istilohlarning qo'llanilishi, frazeologik birliklarning o'ziga xos jihatlari muhim ahamiyat kasb etadi.

Morfologik jihatdan asarda turkiy (-lık/-lik, -çı/-çi), forsiy (-bân, -kâr) va arabiy (masdar, sifat shakllari) so'z yasalish usullari faol ishlatilgan.[1] Bu esa asarning til xususiyatlarini yanada boyitgan.

Asarda frazeologik birliklar va maqollar ham muhim o'rin tutadi. «Baş çıkarıp» (bosh chiqarib - paydo bo'lmoq), «til tutmoq» (gapirmoq), «köngül ceybi» (ko'ngil cho'ntagi - qalb) kabi frazeologizmlar asarning badiiy qiymatini oshirgan. Shuningdek, turkiy, fors va arab maqollarining badiiy talqini ham asarning til boyligini ko'rsatadi.

Haydar Xorazmiyning mahorati shundaki, u arab, fors va turkiy til unsurlarini mohirona uyg'unlashtirgan. Har bir so'z o'z o'rnida qo'llanilib, ma'no nozikliklari, badiiy tasvir va musiqiylikni ta'minlashga xizmat qilgan.

«Maxzan ul-asror» dostonining she'riy tuzilishi turkiy adabiyotining eng yetuk namunalaridan biri sifatida e'tirof etiladi. Asar aruzning «müfte'ilün müfte'ilün fâ'ilün» vaznida yozilgan bo'lib, bu vazn masnaviy janri uchun an'anaviy hisoblanadi va Nizomiyning «Maxzan ul-asror» dostonida ham qo'llanilgan.[2]

Asarda aruz vaznining qo'llanilishi o'ziga xos xususiyatlarga ega. Hijolar tizimida qisqa va cho'ziq hijolarning mutanosib kelishi, turoqlarning izchil joylashuvi, ichki ohangning ta'minlanishi kabi jihatlar ko'zga tashlanadi. Shuningdek, zihoflarning o'rinli qo'llanilishi, imola va taqte'ning to'g'ri ishlatilishi hamda fonetik o'zgarishlarning hisobga olinishi kabi xususiyatlar ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Turkiy so'zlarning aruz qolipiga moslashuvida cho'ziq unlilarning ifodalanishi, qisqa unlilarning talaffuzi va bo'g'in tuzilishining vaznga moslanishi kabi jihatlar e'tiborga molik. Haydar Xorazmiy turkiy so'zlarni aruz qolipiga mohirona moslashtira olgan.

Dostonda qofiya tizimi ham mukammal ishlab chiqilgan. Mutlaq qofiya, muqayyad qofiya va muraddaf qofiya kabi qofiya turlaridan unumli foydalanilgan.[3] Radif turlarida esa fe'l radiflar (birip, tutdı, tolgadı), ot radiflar (yolın, kolın) va qo'shma radiflar (birip-kelip) keng qo'llanilgan. Qofiya va radifning o'zaro munosabati asar kompozitsiyasiga xizmat qilgan.

Badiiy nutq ohangi va musiqiylik asarning muhim xususiyatlaridan biridir. Bu jihatdan tovush takrorlari alohida ahamiyat kasb etadi. Masalan:

«Tilbeligim tuttı dimâgım yolın
Tolgadı bu nagme kulagım kolın»

Bu baytda «t» va «l» tovushlarining takrori (alliteratsiya) orqali musiqiylik ta'minlangan.[4] Shuningdek, assonans va so'z o'yini kabi vositalar ham asarning ohangdorligini oshirgan.

Ritm-intonatsion vositalar ham dostonda keng qo'llanilgan. Turoqlarning izchil kelishi, pauza va urgularning to'g'ri taqsimlanishi, sintaktik parallelizm kabi usullar she'riy nutqning ravonligini ta'minlagan. Ichki qofiyalar, bo'g'in tuzilishidagi mutanosiblik va tovushlar garmoniyasi asarning musiqiy jihatini kuchaytirgan.

Haydar Xorazmiyning mahorati shundaki, u aruz vaznining barcha imkoniyatlaridan foydalangan holda, turkiy tildagi she'riy asarning musiqiyligini ta'minlay olgan. Versifikatsion xususiyatlar g'oyaviy mazmunni ifodalashga xizmat qilgan.

«Maxzan ul-asror» dostoni g'oyaviy-tasviriy jihatdan rang-barang va chuqur mazmunga ega asar sanaladi. Doston g'oyaviy-tasviriy jihatdan uch asosiy yo'nalishda o'rganilishi mumkin.

Birinchi yo'nalish – ramziy obrazlar tizimidir. Asarda qo'llanilgan ramziy obrazlar asosan tabiat hodisalari, ranglar va hayvonot olami bilan bog'liq. Quyosh ilohiy ma'rifat, oy komil inson, yulduz ilohiy hidoyat, shamol esa ilohiy nafas ramzi sifatida qo'llanilgan. Ranglar ham ramziy ma'noga ega: oq - poklik va soflik, qora - zulmat va jaholat, yashil – tiriklik va umid, qizil – ishq va muhabbat ramzidir. Hayvonot olami ramzlari orasida bulbul oshiq, gul ma'shuq, kabutar ruh, arslon esa botirlik va mardlik timsoliga aylangan.

Ikkinchi yo'nalish – tasavvufiy timsollar va ularning talqinidir. Haydar Tilbe asarda tasavvufiy timsollardan keng foydalangan. Ishq bilan bog'liq timsollarda may ilohiy ishq, soqiy murshid, mayxona xonaqoh, mastlik esa jazba holatini anglatadi. Yo'l-safar bilan bog'liq timsollarda yo'l tariqatni, yo'lovchi solikni, manzil haqiqatni, rahbar esa murshidni ifodalaydi. Ma'rifat bilan bog'liq timsollarda quyosh ilohiy ma'rifat, nur ilohiy tajalliy, ko'z qalb ko'zi, ko'ngil esa ilohiy sirlar xazinasi ma'nosida keladi.

Uchinchi yo'nalish – badiiy tasvir vositalarining g'oyaviy vazifasidir.[5] Asarda qo'llanilgan tashbehlar ma'naviy tushunchalarni moddiy narsa-hodisalarga o'xshatish, tasavvufiy holatlarni tabiiy hodisalar orqa-

[1] Kahhar, Tahir (2000). "Haydar Harezmî". Başlangıcından Günümüze Kadar Türkiye Dışındaki Türk Edebiyatları Antolojisi. C. 14. Ankara: KB Yay.

[2] Eraslan, Kemal (1993). "Çağatay Edebiyatı". İslâm Ansiklopedisi. C. 8. İstanbul: TDV Yay.

[3] Gözütok, Avni (2008). Haydar Tilbe, Mahzenü'l-Esrâr (Gramer-Metin-Dizin-Tıpkıbasım). Erzurum: Fenomen Yay.

[4] Kahhar, Tahir (2000). "Haydar Harezmî". Başlangıcından Günümüze Kadar Türkiye Dışındaki Türk Edebiyatları Antolojisi. C. 14. Ankara: KB Yay.

[5] Kahhar, Tahir (2000). "Haydar Harezmî". Başlangıcından Günümüze Kadar Türkiye Dışındaki Türk Edebiyatları Antolojisi. C. 14. Ankara: KB Yay.

li ifodalash va ruhiy kechinmalarni aniq tasvirlash vazifasini bajargan. Istioralar tasavvufiy mazmunni yashirin ifodalash, ma'no qatlamlarini boyitish va badiiy ta'sirchanlikni oshirishga xizmat qilgan. Tazod san'ati esa ziddiyatlar orqali ma'noni kuchaytirish, falsafiy mushohadani chuqurlashtirish va g'oyaviy fikrni bo'rttirib ko'rsatish vazifasini o'tagan.

Dostonning asosiy g'oyalari komil inson tarbiyasi, ma'rifat va jaholat kurashi, ilohiy va majoziy ishq munosabati, axloqiy-ma'rifiy qarashlar kabi masalalarni qamrab oladi. Bu g'oyalar ramziy obrazlar, tasavvufiy timsollar va badiiy tasvir vositalari orqali ifodalangan. Haydar Xorazmiyning mahorati shundaki, u an'anaviy timsollarni yangicha talqin etgan, ramziy obrazlarni o'ziga xos tarzda qo'llagan va badiiy tasvir vositalarini uyg'un holda ishlatgan.

Asarda g'oya va shakl munosabati ham mukammal tarzda namoyon bo'ladi. G'oyaviy mazmun badiiy shakl bilan uyg'unlashib ketgan. Tasviriy vositalar g'oyani ochib berishga xizmat qilgan. Bu esa asarning badiiy qimmatini oshirgan.

Haydar Xorazmiyning «Maxzan ul-asror» dostonida g'oyaviy-tasviriy xususiyatlarning yana bir necha muhim jihatlari mavjud. Bular insoniy fazilatlar talqini, ruhiy holatlar tasviri va axloqiy-ta'limiy g'oyalarning badiiy ifodasida namoyon bo'ladi.

Asarda insoniy fazilatlar o'ziga xos tasviriy vositalar orqali ochib berilgan. Adolat timsoli taxt, toj va tarozi kabi ramzlar orqali ifodalangan bo'lib, ularda adolat, odillik va haq-huquq o'lchovi kabi ma'nolar mujassamlashgan. Saxovat tasviri bulut, daryo va quyosh timsollarida aks etgan. Bunda bulut saxiylik ramzi, daryo himmat belgisi, quyosh esa ochiq qo'llilik timsoli sifatida kelgan. Kamtarlik fazilati tuproq, giyoh va shabnam orqali tasvirlangan bo'lib, tuproq kamtarlik ramzi, giyoh xoksorlik belgisi, shabnam esa kamsuqumlik timsoli vazifasini bajargan.

Dostonda ruhiy holatlar tasvirida ham o'ziga xos vositalar qo'llanilgan. Ishq holatlari o't, shamol va to'lqin kabi timsollar orqali ifodalangan. O't ishq alangasini, shamol ishq iztiroblarini, to'lqin esa ishq tug'yonini anglatadi. Ma'rifat holatlari nur, tong va ufq timsollarida aks etgan. Nur ma'rifat yog'dusini, tong ma'rifat boshlanishini, ufq esa ma'rifat chegarasini bildiradi. Jazba holatlari chaqmoq, dovul va girdbod orqali tasvirlangan. Chaqmoq jazba yarqirashini, dovul jazba shiddatini, girdbod esa jazba aylanishini ifodalaydi.

Asardagi axloqiy-ta'limiy g'oyalar ramziy voqealar, ibratli rivoyatlar va hikmatli so'zlar vositasida ifodalangan. Ramziy voqealar orqali muallif murakkab axloqiy masalalarni sodda va tushunarli tarzda yetkazgan. Ibratli rivoyatlar esa axloqiy xulosalarni mustahkamlashga xizmat qilgan. Hikmatli so'zlar doston g'oyaviy mazmunini yanada boyitgan.

Haydar Xorazmiy g'oyaviy-tasviriy vositalarni shunchaki bezak sifatida emas, balki chuqur ma'no va mohiyat tashuvchi unsurlar sifatida qo'llagan. Bu esa asarning badiiy-estetik qimmatini yanada oshirgan.

Rezyume. Ushbu maqolada Haydar Xorazmiyning "Maxzan ul-asror" dostonining badiiy mahorati, tili va she'riy tuzilishi tadqiq etilgan. Muallif dostonning tasavvufiy mazmunini yoritishda qo'llanilgan tashbeh, istiora, tazod, talmeh va mubolag'a kabi badiiy tasvir vositalarining o'rni va vazifasini ochib bergan. Shuningdek, asarning aruz vazni, qofiya tizimi va musiqiyligini ta'minlovchi tovush takrorlari (alliteratsiya) tahlil qilingan. Maqolada dostonning leksik qatlami, undagi turkiy, arabiy va forsiy unsurlarning uyg'unligi hamda ramziy obrazlar tizimi atroflicha yoritilgan.

Резюме. В данной статье исследуется художественное мастерство, язык и версификационные особенности поэмы Хайдара Хорезми «Махзан ул-асрар». Автор раскрывает роль и функции таких изобразительных средств, как метафора, аллегория, антитеза, талмих и гипербола в выражении суфийского содержания произведения. Проанализированы система аруза, структура рифмы и приемы создания музыкальности текста, в частности аллитерация. В работе также рассматривается лексический пласт поэмы, гармония тюркских, арабских и персидских элементов, а также система символических образов.

Resume. This article examines the artistic craftsmanship, language, and poetic structure of Haydar Khwarazmi's epic «Makhzan ul-Asrar». The author elucidates the role and functions of literary devices such as simile, metaphor, antithesis, allusion (talmeh), and hyperbole used to convey the Sufi content of the work. Furthermore, the study analyzes the prosody, the rhyme system, and the use of sound repetitions (alliteration) to enhance musicality. The article also explores the lexical layers of the epic, the synthesis of Turkic, Arabic, and Persian elements, and the complex system of symbolic imagery.